


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbekistonda o‘tkir limfoblastik leykemiya bilan kasallangan bolalarda kimyoterapiya asoratlarini kamaytirish uchun davolash algoritmini ishlab chiqish maqsadida tiopurin metiltransferaza genining polimorfizmini, kam uchraydigan genetik mutatsiyalarni o‘rganish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: TPMT genining mutatsiyalar spektrini va kam uchraydigan genetik mutatsiyalarni o‘rganish DNK sekvensiyasi yordamida o‘rganish. Tashuvchini aniqlash va o‘z vaqtida tashxis qo‘yish uchun TPMT genidagi mutatsiyalar va polimorfizmlarning diagnostik imkoniyatlarini baholash (2025). Mutatsiyalarning 6-MP metabolitlari darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligini, shuningdek, kam uchraydigan genetik mutatsiyalarning terapiyaning toksikligi va samaradorligi bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash. O‘zbekiston Respublikasida TPMT genining va kam uchraydigan genetik o‘zgarishlarni (giper- va gipoploidiyalarni kariotiplash usuli bilan; ABL1, ABL2, PDGFRb, CSFR1, TCF3, PAX5, delecija 3’-PAX5, MEF2D, CREBBP, EPOR, TP53 delecijalarini – FISH usuli bilan; JAK2, CALR, MPL mutatsiyalarni (molekulyar) – PCR usuli bilan) mutatsion spektrlari ma’lumotlar bazasini yaratish (2026) va klinik amaliyotga kiritish. Aniqlangan ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda o‘tkir limfoblastik leykemiya bilan kasallangan bolalarda kimyoterapiya asoratlarini kamaytirish uchun davolash algoritmini ishlab chiqish (2027). Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqotlar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligi xulosasi olinadi. Natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalari Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi